



INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAVDO KORXONALARI FAOLIYATIDAGI  
O'RNI VA AHAMIYATI

*Toxirova Gullola*

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0005-9274-3577

[mraxmatovd@gmail.com](mailto:mraxmatovd@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada innovatsion rivojlanishning savdo korxonalaridagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar savdo sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, innovatsiyalar yordamida savdo korxonalari o'z faoliyatini optimallashtirish, yangi bozorlarni zabit etish va barqaror rivojlanish uchun muhim strategiyalarni ishlab chiqishadi. Ushbu maqolada, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar savdo sohasidagi o'sish va modernizatsiya jarayonlarida qanday rol o'yynashi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion rivojlanish, savdo korxonalari, texnologiyalar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik, mijozlarga xizmat ko'rsatish, optimallashtirish, barqaror rivojlanish.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
КОММЕРЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

*Тахирова Гуллола*

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье рассматривается роль и значение инновационного развития в деятельности торговых предприятий. Новые технологии и инновации создают возможности для повышения конкурентоспособности, улучшения качества обслуживания клиентов и увеличения экономической эффективности в сфере торговли. Также с помощью инноваций торговые компании могут оптимизировать свою деятельность, захватывать новые рынки и разрабатывать важнейшие стратегии для устойчивого развития. В статье анализируется, как инновационные подходы и технологии играют важную роль в процессе роста и модернизации торговой отрасли.

**Ключевые слова:** инновационное развитие, торговые предприятия, технологии, конкурентоспособность, экономическая эффективность, обслуживание клиентов, оптимизация, устойчивое развитие.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL ENTERPRISES

**Tokhirova Gullola**  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** The article analyzes the role and significance of innovative development in the activities of trade enterprises. New technologies and innovations create opportunities to enhance competitiveness, improve customer service quality, and increase economic efficiency in the trade sector. Additionally, with the help of innovations, trade companies can optimize their operations, capture new markets, and develop crucial strategies for sustainable development. This article explores how innovative approaches and technologies play a vital role in the growth and modernization processes in the trade industry.

**Keywords:** innovative development, trade enterprises, technologies, competitiveness, economic efficiency, customer service, optimization, sustainable development.

### **Kirish.**

Hozirgi global iqtisodiy muhitda savdo sektori dunyo bo'ylab yangi va ilg'or texnologiyalarni jadal tarzda joriy etish zaruriyatini his qilmoqda. Innovatsion rivojlanish – bu iqtisodiyotning har bir sohasida, xususan, savdo korxonalarida yuqori samaradorlikka erishish uchun asosiy omilga aylangan. Yangi texnologiyalar, axborot tizimlari va ilg'or yondashuvlar savdo sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Savdo korxonalari innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali o'z faoliyatini optimallashtirish, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish, narx siyosatini yangilash va bozorning dinamik o'zgarishlariga moslashishda muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Shu bilan birga, innovatsiyalar savdo jarayonlarini yanada tezlashtirish, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish, marketing strategiyalarini modernizatsiya qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Ushbu maqolada, innovatsion rivojlanishning savdo korxonalari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlarning savdo sohasiga kiritgan yangi imkoniyatlari va bu jarayonlarning iqtisodiy samaradorlikka, raqobatbardoshlikka va mijozlar bilan munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, texnologiyalar yordamida savdo korxonalari o'z strategiyalarini qanday shakllantirayotgani va bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga qanday javob berayotganini tahlil qilamiz.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Savdo korxonalarining innovatsion rivojlanishi: nazariy asoslar. Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish savdo korxonalarining samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Bozor talablarining o'zgarishi, iste'molchilar ehtiyojining oshishi va raqobat muhitining kuchayishi savdo korxonalarini yangi yondashuvlarni joriy etishga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi PF-5719-sonli (2020) "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha huquqiy asos yaratdi. Innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro tajribalar va milliy huquqiy asoslarni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilar e'tiborga molik:

O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish yo'nalishida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan:

➤ **O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni (2000) (2015-yil, 22-may)** elektron savdo maydonchalarini rivolantirish va innovatsion biznes modellarni joriy etish uchun huquqiy asos yaratdi;

- O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni (2020-yil) (Qaror, 2021);
- "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" (2021-yil, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori) (2017);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"gi qarori (2021-yil) (Qonun, 2019).

Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Kotler va Armstrong (2018) savdo innovatsiyalarining mijozlar bilan ishlash strategiyalariga ta'sirini tadqiq qilgan. Shuningdek, Porter (2008) innovatsion biznes modellar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rgangan. Schumpeter (1934) tomonidan taqdim etilgan innovatsion rivojlanish nazariyasi savdo tarmoqlarida yangi texnologiyalarning rolini asoslab bergen.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqola doirasida savdo korxonalaridagi innovatsion rivojlanishning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish uchun bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqot jarayonida maqsad — innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarning savdo faoliyatiga ta'sirini, shuningdek, bu jarayonlarning iqtisodiy va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rnini aniqlashdir.

### **Tahlil va natijalar.**

Innovatsiyalar savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlar qisqaradi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshadi va biznes jarayonlari samaraliroq bo'ladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida innovatsion rivojlanish esa ekologik barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Innovatsiya - bu yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali iqtisodiy o'sishga erishish usulidir. Savdo korxonalari uchun innovatsiyalar quyidagi yo'naliishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

**A.** Elektron tijorat va raqamli texnologiyalar – savdo jarayonlarini avtomatlashtirish va onlayn xarid imkoniyatlarini kengaytirish.

**B.** Ekologik innovatsiyalar – barqaror rivojlanishni ta'minlash va yashil iqtisodiyot talablariga javob berish.

**C.** Mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimidagi innovatsiyalar – sun'iy intellekt, big data va boshqa texnologiyalar yordamida mijozlarga individual yondashuvni ta'minlash (Qonuni, 2015).

### **1-jadval**

#### **Innovatsion rivojlantirishning savdo korxonalari faoliyatidagi o'rni va ahamiyatining SWOT-tahhili**

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Raqobatbardoshlikni oshirish;</li> <li>✓ Yangi bozorlarni ochish;</li> <li>✓ Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;</li> <li>✓ Korxona brendini yuqori sifat, yangi texnologiyalar va ilg'or yondashuvlar bilan bog'lash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Yuqori investitsiya talab qiladi;</li> <li>✓ Risklar va noaniqlik;</li> <li>✓ Yuqori xarajatlar;</li> <li>✓ Xodimlarni tayyorlash zarurati.</li> </ul>
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish;</li> <li>✓ Texnologik taraqqiyot;</li> <li>✓ Ijtimoiy mas'uliyat va ekologik innovatsiyalar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Raqobatchilar tomonidan o'tkazilgan innovatsiyalar;</li> <li>✓ O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar;</li> <li>✓ Texnologik o'zgarishlar;</li> <li>✓ Global miqyosda raqobatning kuchayishi savdo korxonalari uchun tahdid tug'dirishi mumkin.</li> </ul>

**Manba:** muallif ishlanmasi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishga sarmoya kiritgan savdo korxonalari uzoq muddatli barqaror o'sishga erishmoqda. Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanishning asosiy yo'naliishlari:


1. Raqamli texnologiyalar va elektron tijorat – internet orqali savdo qilish platformalarining kengayishi, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari.
2. Yashil innovatsiyalar – energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza mahsulotlarni targ'ib qilish.
3. Mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi innovatsiyalar – aqli do'konlar, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqarilgan chatbotlar va personalizatsiyalangan xizmatlar.

SWOT-tahlildan (1-jadval) ko'rinish turibdiki, innovatsion rivojlanish savdo korxonalari faoliyatida katta ahamiyatga ega. U raqobatbardoshlikni oshirish, yangi bozorlar ochish va samaradorlikni yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, shu bilan birga innovatsiyalarni joriy etish katta investitsiyalarni va risklarni talab qiladi. Shu sababli, savdo korxonalari innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ehtiyyotkorlik bilan yondashishlari kerak.

Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish quyidagi jihatlar bilan bog'liq:

- **Raqobatbardoshlikni oshirish** – yangi texnologiyalar va ilg'or boshqaruvs usullarini tatbiq etish orqali bozor talablariga tezkor javob berish imkoniyati;
- **Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish** – avtomatlashtirilgan tizimlar va elektron tijorat platformalarini keng joriy etish;
- **Iste'molchilarga qulay sharoitlar yaratish** – zamonaviy xizmat ko'rsatish texnologiyalaridan foydalanish (Qaror, 2018).

Masalan, Walmart va Amazon kabi yirik xalqaro savdo tarmoqlari innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali xaridorlarga qulay sharoit yaratib, raqobatda ustunlikka erishmoqda.



**1-rasm. Innovatsion faoliyat omillarini tasniflash** (Shukurov, 2021)

Samarqand viloyati misolida innovatsion rivojlanish tendensiyalari. Samarqand viloyatidagi savdo korxonalari innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha faoliyat yuritmoqda. Xususan, bir qator yirik savdo markazlari raqamli to'lov tizimlari va elektron tijorat elementlarini joriy qilmoqda. Biroq, quyidagi muammolar mavjud:

- ⇒ Yetarlicha investitsiyalar yetishmovchiligi.
  - ⇒ Innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha malakali mutaxassislarining kamligi.
  - ⇒ Yangi texnologiyalarning sekin integratsiya qilinishi (Qaror, 2021).
- Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:
- ⇒ Davlat tomonidan innovatsion loyihalarga subsidiya va grantlar ajratish.
  - ⇒ Mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish.
  - ⇒ Texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlar uchun treninglar tashkil etish (Qaror, 2021).

**Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanishning istiqbollari.** Kelgusida savdo korxonalarining rivojlanishida quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ⇒ **Elektron tijorat va raqamli transformatsiya** – onlayn savdo platformalarining kengayishi;

⇒ **Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish** – ekologik toza mahsulotlar va qadoqlash tizimlarining rivoji;

⇒ **Blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish** – logistika va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish.

⇒ Innovatsion rivojlanish - bu savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash vositasi hisoblanadi.

⇒ Texnologik innovatsiyalar, jumladan, raqamli tizimlar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan xizmatlar savdo korxonalarining samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston sanoatida innovatsiyalardan foydalanish borasida yangi tendentsiya shakllandi. Bunga qadar, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda tabiiy resurslarni qayta ishslash bilan bog'liq tarmoqlar ustunlik qilgan. Biroq, bugungi kunda O'zbekiston tabiiy resurslaridan foydalanishga tubdan yangicha yondashuvni maqsad qilgan. Buning yorqin namunasi yangi UzGTL zavodi tabiiy gazni chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganidir (Farmon, 2018).

Bu kabi yirik loyihalar tufayli O'zbekiston bosqichma-bosqich tabiiy gaz xomashyosi eksportidan voz kechib, neft mahsulotlari importini kamaytirmoqda. Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shilayotganidan dalolat beradi. Nafaqat O'zbekiston, balki MDH mamlakatlari ichida eng yirik investitsiya loyihalardan biri hisoblanadigan mazkur UzGTL majmuasi ham innovatsion ishlab chiqarish namunasidir. Shuningdek, MDH hududidagi eng zamonaviy va innovatsiyalardan biri bu – korxonaning markaziy boshqaruv pulti va zavod markaziy laboratoriyasidir (Farmon, 2018, 2020).

Yangi korxona GTL, ya'ni "gazni – suyuqlikka" texnologiyasi asosida yiliga 3,6 milliard metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 1,5 million tonna tayyor mahsulotlar – aviakerosin, dizel yoqilg'isi, nafta, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bunday zavod shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, JAR va Malayziyada barpo etilgan. Bu yerda yiliga umumiyligi 1 milliard AQSH dollari yoki 12,8 trillion so'mdan ortiq import o'rnnini bosuvchi neft mahsulotlari va uglevodorod xom ashyolari ishlab chiqariladi. GTL texnologiyasi asosida tabiiy gazdan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish uch bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan zamonaviy yonilg'i turlari ekologik jihatdan sifatli va toza. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyiliga ham mos tushadi.

Masalan, GTL dizel yonilg'isini olaylik. Yuqori texnik tavsifga ega va tarkibida oltingugurt miqdori deyarli bo'lмаган GTL dizelidan atmosferaga aytarli chiqit chiqmaydi. Xuddi shuningdek, GTL kerosini aviakompaniyalarga atmosferaga chiqariladigan zararlarni kamaytirishning xavfsiz va daromadli usulini taklif etadi (Farmon, 2018, 2019, 2020).

### Xulosa va takliflar.

Innovatsion rivojlanish savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Elektron tijorat, yashil innovatsiyalar va mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi yangiliklar savdo korxonalarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Samarcand viloyatida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, investitsiyalarni jalg qilish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish lozim (Porter, 1985). Bu esa savdo sohasida yanada barqaror va samarali rivojlanishga zamin yaratadi.

O'zbekiston savdo tarmog'ida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish.
2. Savdo korxonalarining ilmiy-texnologik tadqiqotlarga investitsiyalarini oshirish.
3. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish.

O'zbekistonning savdo sohasida innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion rivojlanish savdo korxonalarining samaradorligini oshirib, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. **Davlat tomonidan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish;**
2. **Elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirishga e'tibor qaratish;**
3. **Savdo korxonalarida innovatsion menejment tizimlarini joriy etish.**

Yuqorida choralar orqali innovatsion rivojlanish jarayonlari savdo sektorida yanada jadallahashi va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### *Adabiyotlar /Литерапия/Reference:*

"Innovatsion faoliyat to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (24.07.2020 yil, № O'RQ-630)

Farmon (2018) "2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018 yil 21-sentabrda PF-5544-son Farmoni.

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi PF-5719-sonli "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzoyoyevning "O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi 2020-yil 29-oktyabrdagi farmoni.

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdag'i "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4776669>

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi rasmiy ma'lumotlari (2023).

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni (2020-yil).

Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.

Qaror (2017) "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiysi va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-3698-son Qarori. (2018 yil 7 may)

Qaror (2021) "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" (2021-yil, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori).

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"gi qarori (2021-yil).

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirdari" PQ – 5113 son Qarori.

Qonun (2000) O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi"gi Qonuni (29.10.2019 yil, № O'RQ-576).

Qonuni (2015) O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni (2015-yil, 22-may)

Samarqand viloyati iqtisodiy rivojlanish bo'yicha statistik hisobotlar (2023).

Schumpeter, J. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.

Shukurov U.Sh. (2021) SANOAT KORXONALARI INNOVATION FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNING MINTAQASI IQTISODIYOTIGA TA'SIRI // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 / ISSUE 5 / ISSN: 2181-1601